

DEVELOP STUDENTS' KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCIES IN THE LEARNING PROCESS

Abdunazarova Dilfuza Tukhtasinovna

Teacher of KDPI

dilfuzaxon1100@gmail.com, +998903081100

Ergasheva Hilolahon Muydinjonovna

Teacher of KDPI

+998999358728

ABSTARCT

The use of step-by-step technology in this article will make the lesson more interesting and understandable. This method can be used in lectures, seminars, practical and laboratory classes individually or in small groups. It depends on the task set by the teacher. Significantly, the step-by-step approach is used to assess the knowledge of each student in the class individually.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstititsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqishlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Umuman, ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- yangi bilimlarni idrok etishga tayyorlash;
- o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- o'quvchilarni kitob bilan ishlashga yo'naltirish.

Shuningdek, o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarni egallashdagi muvaffaqiyatlari bundan oldingi tayyorgarlik darajasiga, o'qitishning ayni bosqichida qanchalik rivojlanganligiga va yoshiga bog'liq. Agar yangi mavzuni o'qitish jarayonida o'rganilayotgan materialni o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini hisobga olmasdan tushuntirilsa, u holda o'quvchi bu materialni yo umuman o'zlashtira olmaydi yoki rivojlanishdan to'xtaydi, ya'ni ularning

qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan iroda va intilishlarining o'sishi uchun sharoit yaratilmagan bo'ladi. Yuqorida keltirilgan bosqichlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Yangi bilimlarni idrok etishga tayyorlash.

Didaktika asoschisi A.Ya.Komenskiy bunday yozgan edi: "O'quvchilar biror fanni o'rganishga kirishar ekanlar, avvalo, ularning aqli shunga tayyor bo'lishi kerak". O'quvchilarni yangi bilimlarni idrok etishga tayyorlashning mohiyati ham ana shundadir. O'quvchilarni yangi bilimlarni idrok etishga tayyorlash metodlari ko'p, bu metodlardan qay birini qo'llash lozimligi o'rganiladigan mavzu mazmuniga, uning qanchalik muhimligiga, o'quvchilarning qanchalik tayyorligiga va o'qituvchining tajribasiga bog'liq.

O'quvchilarni o'rganadigan ma'lumot yoki yechilayotgan masala bilan tanishtirishning eng ko'p tarqalgan metodlaridan biri o'quvchilar bilib olgan ma'lumotlar bilan bilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar orasiga "ko'prik solish" maqsadida ilgari o'rganilgan mavzularning asosiy joylarini takrorlashdan iborat. Ikkala holda ham asosiy e'tiborni takrorlanadigan mavzuning faktlarga asoslangan tomonigagina emas, balki o'rganilishi kerak bo'lgan mavzu bilan bog'lanish o'rnatishga qaratish lozim. Bunda ayni paytda o'rganilgan ma'lumotlar bilan birga o'quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlariga tayanish muhimdir.

O'quvchilarni yangi o'quv materiallarini idrok etishga tayyorlashning muhim elementi ularga dars mavzusini va darsdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadni bildirishdan iborat. Tajribali o'qituvchilar, odatda, dars mavzusini va darsdan ko'zlangan maqsadni aytibgina qolmasdan, balki suhbat o'tkazish yordamida o'quvchilarni yangi mavzuga "yaqinlashtiradi".

O'quvchilarni yangi bilimlarni idrok etishga tayyorlash maqsadida ilmiy-ommabop jurnallarning navbatdagi dars bilan bog'liq bo'lgan qiziqarli materiallar bilan tanishtirish, bugungi kunda qilinayotgan ilmiy kashfiyot yoki ishlab chiqarish ilg'orlari qo'lga kiritgan yutuqlar to'g'risida ro'znoma va jurnallarda bosilgan ma'lumotlardan misollar keltirish ham mumkin va hokazo. Bu o'quvchilarning yangi mavzuga qiziqishini oshiradi hamda ularni mustaqil fikr yuritishga undaydi.

"Zinama-zina" metodi

"Zinama-zina" texnologiyasidan foydalanish darsning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Mazkur usuldan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka yoki kichik guruhlariga bo'lingan holda foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining qo'yan vazifasiga qarab belgilanadi. Ahamiyatli jihati, sinfdagi har bir o'quvchining bilimini individual baholashda "Zinama-zina" usuli qo'l keladi.

1. Matematika fanining biror bo'limida o'tilgan mavzularga doir savollar tanlanadi.

2. Doskaga ikki tomondan bir xil chiqib boriladigan pog‘onasimon chizma chiziladi, har bir pog‘onaga savollar yoziladi.

3. Har ikki tomondagi pog‘onalar soni teng bo‘lishi kerak.

4. Ikki o‘quvchi doskaga chiqariladi va topshiriqni bir vaqtda bajarishga kirishadi.

5. Har ikki o‘quvchiga berilgan topshiriqlar o‘tilgan mavzu yuzasidan bir-biriga yaqin hamda o‘xshash bo‘lishi kerak.

6. Topshiriqni birinchi va to‘g‘ri bajargan o‘quvchi nisbatan yuqoriroq baholanadi.

7. Baholash tartibi pog‘onalar soniga qarab quyida keltirilgan mezon asosida amalga oshiriladi.

Pog‘onalar 9 ta bo‘lsa: 8-9 ta to‘g‘ri javobga “a’lo”, 6-7 ta to‘g‘ri javobga “yaxshi”, 5 ta to‘g‘ri javobga “qoniqarli” baho qo‘yiladi.

O‘quvchilar bundan keyingi mashg‘ulotlarning yanada qiziqarli o‘tishini kutadigan bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi darsda o‘zini qanday tutishi juda muhim. O‘quvchilar sezishi mumkin bo‘lgan ishonchsizlikka, hatto juda kichik bir xatoning o‘tkazib yuborilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. SHu sababli o‘qituvchi o‘zining har bir metodi, harakati, so‘zini oldindan tasavvur qilishi uchun birinchi darsga juda puxta tayyorgarlik ko‘rishi lozim

O‘qitishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish.

Ko‘rsatmali qo‘llanmalar umumta‘lim fanlari mazmunining o‘ziga xos xususiyatlari va ularni o‘rganish metodiga mos bo‘lishi lozim. Shuning uchun umumta‘lim fanlarini o‘rganishda ko‘rsatmali qo‘llanma tamoyili asosiy g‘oyani yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

O‘qituvchilarga ko‘pincha, ko‘rsatmali qo‘llanmalarni loyihalash, tayyorlash yoki bunday qo‘llanmalarni yaratishga rahbarlik qilishga to‘g‘ri keladi. Bunda quyidagi talablarga rioya qilish talab etiladi:

- ko‘rsatmali qo‘llanma barcha o‘quvchilar yaxshi ko‘ra oladigan darajada katta bo‘lishi kerak;
- qo‘llanmadagi yozuvlar sinfning istagan joyidan bimalol o‘qisa bo‘ladigan darajada yirik, qora yoki ko‘k harflar bilan yozilishi, muhim qism va joylari bo‘yalishi zarur.

O‘quvchilarga yangi materialni bayon etishda ko‘rsatmali qo‘llanmalardan to‘g‘ri va o‘z vaqtida foydalanish katta ahamiyatga ega. Qo‘llanmalardan foydalanish o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini, o‘tilayotgan mavzuning mohiyatini tez fursatda oshirishga, olib keladi.

1. Barkamol avlod orzusi // SH.Qurbonov, X.Saidov, R.Axlidinov. To‘ldirilgan 2-nashri. /O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. -Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. - 248 b.

2. Matnazarov U. B. Matematikani tabiiy fanlar bilan bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik asosi. //O‘zbekiston Mustaqilligi — uning fani va texnologiyalarini rivojlantirish kafolati. 2 – tom., -Toshkent, 1999. - 57-59 b.